

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoiraz Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeovich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
S.S. Ismailov	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Kursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	

“KREATIV IQTISODIYOT” VA “KREATIV INDUSTRIYA”: MOHIYATI, NAZARIY JIHATLARINING TAHLILI



Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich

O'zbekiston Milliy universiteti “Makroiqtisodiyot” hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, “Madaniyat va san'at menejmenti” kafedralari dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya: Maqolada kreativ iqtisodiyotni jahon hamda mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni yoritilgan. “Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya” tushunchalariga xorijlik olimlar hamda halqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ta'riflarining nazariy hamda uslubiy jihatlari qiyosiy tahlil etilgan. “Kreativ iqtisodiyot”, “kreativ industriya”, “kreativ sinf” va “kreativ shahar” tushunchalarining mohiyati hamda ularning tarkibi tadqiq etilgan. Shuningdek, O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ industriya, intellektual mulk, madaniyat va san'at sohasi, innovatsiya, inson kapitali, kreativ sinf, kreativ shahar, postindustrial iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti.

Abstract: The article describes the role of the creative economy in the economy of the world and our country. The theoretical and methodological aspects of the definitions of "creative economy" and "creative industry" presented by foreign scientists and international organizations are comparatively analyzed. The essence of the concepts of "creative economy", "creative industry", "creative class" and "creative city" and their content are studied. A scientific proposal and practical recommendations aimed at developing the creative economy in Uzbekistan are also developed.

Key words: creative economy, creative industry, intellectual property, culture and art, innovation, human capital, creative class, creative city, post-industrial economy, knowledge economy.

Аннотация: В статье описывается роль креативной экономики в экономике мира и нашей страны. Сравнительно анализируются теоретико-методические подходы определений “креативная экономика” и “креативная индустрия”, представленных зарубежными учеными и международными организациями. Изучена сущность понятий “креативная экономика”, “креативная индустрия”, “креативный класс” и “креативный город” и их содержание. Также разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на развитие креативной экономики в Узбекистане.

Ключевые слова: креативная экономика, креативная индустрия, интеллектуальная собственность, культура и искусство, инновации, человеческий капитал, креативный класс, креативный город, постиндустриальная экономика, экономика знаний.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoniga asosan “2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi” qabul qilingan bo'lib, ushbu strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda yangi ish o'rni yaratishdan boshlab iqtisodiy qiymat (kapital) yaratishgacha bo'lgan “tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta'lim tashkilot” uzluksiz ekotizimni rivojlantirish hisoblandi [1].

Kreativlik va kreativ iqtisodiyot tushunchalari hozirda evolyutsiya jarayonida bo'lib, ushbu tushunchalar ta'rifining asosiy mazmuni – inson ijodi, g'oyalari, intellektual mulki, bilim va texnologiyaning o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Kreativ iqtisodiyot ijodiy faoliyatga asoslangan barcha tarmoqlarni qamrab oladi. Kreativ iqtisodiyot konsepsiyasi inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali organik o'sishning asosiy omili bo'lgan “bilimlar iqtisodiyoti” bilan chambarchas bog'liqdir.

Dunyoda kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur'atlar bilan kechmoqda va ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynamoqda. Kreativ iqtisodiyot musiqa, nashriyot, arxitektura, televideniye, san'at, madaniyat, dizayn, ommaviy axborot vositalari, reklama, moda, kino va hattoki ba'zi yuqori texnologiyali tarmoqlarni o'z ichiga oladi.



Bugungi kunda kreativ industriya yiliga 2,3 trillion AQSh dollarga yaqin daromad oladi. Jahon eksporti 250 milliard dollarga teng bo'lib, joriy o'sish sur'atlari va ushbu sektorning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda kelgusi 10-15 yil ichida ushbu sektor jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizini tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida ijodkorlik sohasining ulushi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 9 563 ta ijodiy soha korxonalari ro'yxatga olingan bo'lib, ularda yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga olmaganda 84 068 nafar xodim jalb etilgan[10][11].

Hozirgi kunda mamlakatimizda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bir qator amaliy faoliyatlarni olib borilmoqda, jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida "O'zbekiston Respublikasida kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonun loyihasi xalq muhokamasiga qo'yilgan[12]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023-yilning 22-dekabrida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida 2024-yilning 2-4-oktyabr kunlari Toshkentda jahon kreativ iqtisodiyotga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tishi ta'kidlangan[13].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bir qator xorijlik olimlarning ilmiy asarlarida kreativ industriya, kreativ iqtisodiyot tushunchalariga o'z yondashuvlari bayon etilgan, jumladan, **amerikalik olim R.Florida** o'z ishida "kreativlik texnikaviy ixtirolar, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va yangi firmalar yaratishda, madaniy kreativlik va badiiy ijodda, kompyuter grafikasidan tortib raqamli musiqa va animatsiyagacha bo'lgan mutlaqo yangi tarmoqlarning paydo bo'lishida namoyon bo'ladi" deb ta'kidlagan [2].

R.Florida o'z tadqiqotlarida kreativ makon va kreativlik jug'rofiyasini o'rganish katta o'rin tutadi. Mintaqalar bo'yicha kreativlik darajasini baholash uchun R. Florida to'rtta teng darajada muhim omilni birlashtirgan quyidagi kreativlik indekslaridan foydalanishni taklif qildi:

- 1) ijodkorlar sinfining band aholi tarkibidagi ulushi;
- 2) innovatsionlik (aholi jon boshiga patentlar soni);
- 3) yuqori texnologiyali industriya (indeks TechPole - "yuqori texnologiyalar indeksi");
- 4) xilma-xillik, mintaqaning kreativ insonlar va g'oyalar uchun ochiqligi.

R. Floridaning kreativlik indeksi hududlarning kreativlik darajasini baholashda eng muvaffaqiyatli indekslardan biri hisoblanadi.

Rossiyalik olim N.G. Fedotova kreativ industriya va iqtisodiyot tushunchalariga quyidagicha ta'rif bergan: "Kreativ yoki ijodiy industriya – bu individual ijodkorlik, mahorat yoki iste'dodga asoslangan va intellektual mulkni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish asosida qo'shimcha qiymat va ish o'rinlarini yaratishi mumkin bo'lgan faoliyatdir" [5]. N.G. Fedotova bo'yicha kreativ iqtisodiyot, yangi postindustrial iqtisodiyot yoki bilimlar iqtisodiyoti – bu iqtisodiyotning intellektual faoliyatga asoslangan tarmog'i hisoblanadi. Kreativ iqtisodiyotning asosiy jihatlari: yangi bilimlar generatsiyasi, loyihaviy fikrlash, kreativ tasavvur, yangi texnologiyalar va kashfiyotlarning yuqori ahamiyatligida namoyon bo'ladi.

Ye. V. Zelensova tomonidan kreativ industriya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Kreativ industriya – murakkab, ko'p qatlamli mavzu bo'lib, unda san'at, iqtisodiyot va shaharlarni rivojlantirish masalalari bilan bog'lanadi". Olima fikriga ko'ra, kreativ industriya tushunchasi to'g'ridanto'g'ri mintaqaviy va milliy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lib, mamlakatlarda ushbu tushunchaga turlicha ta'riflar shakllangan[3].

Belorussiyalik olim V.A. Juravlev tomonidan kreativ iqtisodiyot tushunchasiga "Kreativ (innovatsion-kreativ) iqtisodiyotning belgilari bu uzluksiz innovatsion rivojlanish, mamlakatning innovatsion rivojlantirishida inson kapitalining katta roli, yangi tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarga investitsiyalar hisoblanadi. Inson kapitalini doimiy rivojlantirish hamda yalpi ichki mahsulotda bilimni talab qiluvchi mahsulotlarning katta ulushi" deb ta'rif bergan [4].

Yuqoridagi olimlarning "kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya" tushunchalariga berilgan ta'riflarning umumiy jihatlari sifatida insonning ijodkorligi, innovatsiya, inson kapitali, mahorat, iste'dodga asoslangan va intellektual mulkni ishlab chiqarish hamda ekspluatatsiya qilish asosida qo'shimcha qiymat yaratish, ish o'rinlarini yaratish asosida mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bayon etilgan.

TADQIQOT METODIKASI

Tadqiqot jarayonida kreativ iqtisodiyot va kreativ industriya tushunchalariga yaqin Sharq hamda G'arb mamlakatlari olimlari, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Amerikalalararo Taraqqiyot Banki (IADB) hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan taqdim etilgan ta'riflari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, "Kreativ iqtisodiyot" shakllanishining evolyutsiyasi tahlil etilgan. Bunda "kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya" tushunchalarini yoritishdagi nazariy-uslubiy yondashuvlar va ularning mohiyatini



o'rganishda dialektik, tizimli yondashuv, qiyoslash, tahlil usuli hamda guruhlash usullari tadqiqot metodologiyasini tashkil etadi. Modellashirish usulida tadqiqot obyektining asosiy xossalari bayon etilgan.

TAHLIL VA NATIJLAR

Gumanitar fanlarning, jumladan, iqtisodiy nazariyaning o'ziga xos xususiyati ijtimoiy hayotdagi, jumladan, iqtisodiyotdagi yangi tendensiyalarni aniqlash va o'rganishdir. So'nggi yillarda iqtisodiy nazariya ko'plab yangi tushunchalar bilan boyidi va ko'plab ilmiy kategoriyalar qo'shimcha ravishda ilmiy muomalaga kiritildi. Misol sifatida kreativ iqtisodiyot va kreativ industriya tushunchalarini keltirishimiz mumkin.

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi madaniyat, san'at va innovatsion mahsulotlar hamda xizmatlarni yaratuvchi shaxslar va korxonalar majmui sifatida ta'riflanadi.

"Kreativlik" atamasi (lot. Creatio - yaratish, bunyod etish, ijodkorlik) 1950-yillarda psixologiya faniga kirib kelgan. Hozirgi kunda kreativlik deganda nafaqat shaxsning o'ziga xos bir jihati, balki murakkab munosabatlar tizimining xususiyati sifatida ham tushuniladi, bu esa yangi atama - "kreativ iqtisodiyot" tushunchasining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Kreativlik shaxsning standart g'oyalar, qoidalar va shablonlar doirasidan chiqib, o'ziga xos nostandart fikrlash qobiliyatidir. Bundan tashqari, kreativlik faoliyatga progressiv yondashuv, tasavvur va o'ziga xoslikning mavjudligini nazarda tutadi. Kreativlik shaxs xususiyatlarida, faoliyatlari jarayonida va yaratilgan mahsulotlarida namoyon bo'ladi. "Kreativlik" va "Ijodkorlik" o'zaro o'xshash tushunchalar, ammo ular bir xil ma'noni anglatmaydi. Ijod – bu shaxs tomonidan san'at mahsulotlarini yaratish jarayonidir. Kreativlik ijodiy faoliyat bilan shug'ulladigan shaxsning o'ziga xos yondashuvi hisoblanadi.

Birinchi marta "kreativ iqtisodiyot" tushunchasi 2000-yilda Business Week jurnalidagi maqolada tilga olingan [5]. Unda muallif XXI asrda korporatsiyalar rolining o'zgarishi, g'oyalarning ahamiyati ortib intellektual resurslar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib borayotgan davrda yangi iqtisodiyot sharoitlariga moslashish imkoniyatlari haqida fikr yuritadi. Kreativ iqtisodning asosida subyektlarning yuqori darajadagi raqobatbardoshlikka erishish imkonini beruvchi nostandart usullar yordamida paydo bo'ladigan va potensial muammolarni hal qilish va qo'shimcha iqtisodiy va ijtimoiy samaralarni olish qobiliyati yotadi deb ta'kidlaydi.

Turli dunyo tadqiqotchilarining "kreativ iqtisodiyot" atamasini talqin qilishga yondashuvlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. "Kreativ iqtisodiyot" tushunchasining sharhlari [6], [7]

Muallif	Tushuncha
Xokins Djerald	Kreativ iqtisod – bu iqtisodiyotning birinchi turlaridan biri bo'lib, unda tasavvur va yaratuvchanlik, insonlar nima qilishini va nima sotib olishni xohlashlarini hal qiladi.
Florida Richard	Kreativ iqtisod – bu bilimlar asosida amaliy yangi shakllarni yaratish bo'lib, uning rivojlanishi 3"3": "texnologiya, "talant" va "tolerantlik" tamoyillariga asoslanadi.
Potts Dj.	Kreativ industriya – bu to'liq bo'lmagan yoki mavhum xarakteristikaga asoslangan buyurtmachidan olingan yoki yaratuvchining shaxsiy motivlaridan kelib chiqib noyob yoki buyurtma mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqdim etish uchun tasavvur hamda kreativlik talab etadigan sohalaridir.
Kloudova Y.	Kreativ iqtisodiyot – bu, asosan, xizmat ko'rsatish sohasida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga olgan ijodkorlik tarmog'i iqtisodiyotidir. Ushbu sohada faoliyat natijalarini iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida uchratish mumkin.
Stepanov A.A.	Kreativ iqtisodiyot – ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yangi bilimlarga, prinsipial sifat jihatidan yangi yechimlarga asoslangan samarali hal etishni ta'minlaydigan nostandart, noan'anaviy, ko'chirilmaydigan g'oyalar, tushunchalar, strategiyalar, faoliyatga asoslangan o'ziga xos ixtisoslashgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidir.
Nyubidjin Dj.	Kreativ iqtisod – bu iqtisodiyotning intellektual faoliyatga asoslangan maxsus tarmog'idir. Asosiy xususiyatlari: inson faoliyatining turli sohalarida yangi texnologiyalar va kashfiyotlarning yuqori roli; yuqori darajadagi noaniqlik; mavjud bilimlarning katta hajmi va yangi bilimlarni yaratishga kuchli zaruriyat.
Machlup F.	Intellektual kapitalni ishlab chiqarish va to'plashda ishtirok etuvchi alohida tarmoq – bu bilimlar iqtisodiyotidir. Bilimlar iqtisodiyoti iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo'lib, unda bilim taraqqiyotda ustun rol o'ynaydi hamda YaIM o'sishiga o'z hissasini qo'shadi.
Druker P.	yangi axborot jamiyatida bilim mavjud ishlab chiqarish omillaridan (mehnat, yer va kapital) biri emas, balki yagona resurs hisoblanadi. Yangi jamiyatning shakllanishining o'ziga xosligi, P.Drukerning fikricha, axborot jamiyati yangi iqtisodiy sharoitlarda katta rol o'ynaydigan bilimlar bilan ta'minlanishi bilan izohlaydi.



“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya” ta’riflari mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar o’rtasida sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Amerikalarda Taraqqiyot Banki (IADB) kreativ (yoki sariq) iqtisodiyotni “g’oyalar intellektual mulk obyekti sifatida himoyalangan yoki himoya qilinishi mumkin bo’lgan madaniy hamda kreativ tovar va xizmatlarga aylantiradigan faoliyat turlari guruhi” deb ta’riflaydi[8].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD) kreativ tarmoqlarning asosiy resurslari sifatida ijodkorlik va intellektual kapitaldan foydalanadigan tovarlar va xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarish va tarqatish sikllari sifatida belgilaydi [9]. Ular ijodiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lgan hamda bozorda sotish uchun mo’ljallangan moddiy tovarlar va nomoddiy intellektual yoki badiiy xizmatlarni ishlab chiqaradigan bilimga asoslangan faoliyat majmuasini o’z ichiga oladi. Kreativ iqtisodiyot barcha mamlakatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun real rivojlanish variantini taqdim etadi. Kreativ tarmoqning rivojlanishiga ta’sirini kuchaytirish uchun qo’shimcha ma’lumotlar, innovatsion va fanlararo siyosat kerak.

Yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkin, “kreativ iqtisodiyot” atamasi kreativ mehnatning hamda bilimning yuqori konsentratsiyasiga asoslangan fan, san’at va madaniyat sohalari iqtisodiyotini anglatadi.

Kreativ iqtisodiyot ham ilm-fan va tadqiqot sohaslarida, ham tadbirkorlik, san’at, madaniyat, dizayn sohaslarida innovatsiyalar dvigeteli hamda yangi yondashuvlar ishlab chiquvchisi hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyot, o’z navbatida, 1-rasmda keltirilgan ushbu turdagi iqtisodiyotning yagona tizimini tashkil etuvchi bir nechta asosiy tushunchalarga asoslanadi.

Kreativ iqtisodiyot	Kreativ industriya	Kreativ sinf	Kreativ shahar
•Konsepsiya Djon Xokins tomonidan "Kreativ iqtisodiyot. G’oyalardan qanday qilib pul topish mumkin" kitobida aks ettirilgan. •Asos sifatida mahsulot qiymatini oshirish uchun ijodkorlikdan foydalanish hisoblanadi.	•Ilk marotaba Buyuk Britaniya Madaniyat, ommaviy axborot vositalari va sport departamenti tomonidan 1998 yilda foydalanilgan. •Iqtisodiyot sohasiga barcha ijodiy faoliyat va tarmoqlarni integratsiyalashuviga asoslangan.	•Richard Florida tomonidan "Ijodiy sinf: kelajakni o’zgartiradigan odamlar" kitobida taqdim etilgan. •3 "T": "texnologiya, "talant" va "tolerantlik" tamoyillariga asoslanadi.	•Charlz Lendri tomonidan "Kreativ shahar" kitobida taqdim etilgan. •Shahar atrof-muhitining rivojlanishi birinchi navbatda insonning qobiliyatlari va motivatsiyasiga, shundan keyingina infratuzilmaga va boshqalarga bog’liq degan nazariyaga asoslanadi.

1-rasm. “Kreativ iqtisodiyot” shakllanish evolyutsiyasi.

“Kreativ iqtisodiyot” ning rivojlanishi uchun asos kreativ industriya bo’lib, ular o’z rivojlanishida kreativ sinfga tayanadi. Kreativ sinf mintaqaning kreativ kapitalini shakllantiradi. Kreativ kapital deganda shaxs va umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun konseptual jihatdan yangi narsalarni yaratish uchun foydalani-ladigan sifatlar, qobiliyatlar, bilim va ko’nikmalar majmui tushuniladi. Mintaqaning kreativ kapitali, o’z navbatida, kreativ klasterlarni shakllantirib, keyinchalik kreativ shaharlarga aylantirilib, iqtisodiy o’sish nuqtasiga aylanadi.

Kreativ sohaslar iqtisodiyotiga xos bo’lgan bir qancha o’ziga xos xususiyatlar mavjud, jumladan:

- uzluksiz innovatsion rivojlanish;
- inson kapitaliga tayanish;
- yangi texnologiyalar va dizayn ishlanmalariga investitsiyalar;
- mahsulot ishlab chiqarishda yuqori bilim ishtiroki;
- mamlakat yalpi ichki mahsulotida yuqori texnologiyali mahsulotlarning ustun ulushi;
- yuqori raqobatbardoshlik;
- tarmoqlararo xarakterdagi kompleks ishlab chiqarish;
- kreativ industriya xodimlarining yuqori darajadagi bilimi va kasbiy tayyorgarligi;
- intellektual kapitalni huquqiy himoya qilinganligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, O’zbekistonda kreativ industriyaning normativ huquqiy bazasini shakllantirish, ushbu yo’nalishdagi tadbirkorlik subyektlarini qo’llab-quvvatlash, jumladan, soliq imtiyozlarini taqdim etish, kreativ salohiyatga ega iqtidorli yoshlarni har tomonlama rag’batlantirish muhim masalalardir.



Yuqoridagilarga asosan mamlakatimizda kreativ iqtisodiyot, jumladan, kreativ industriya tarmoqlarini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- mamlakatimiz yoshlarining qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ta'lim tizimiga, jumladan, maktablar, universitetlar, maxsus va boshqa ta'lim muassasalariga pul mablag'larini ajratish;
- oliy o'quv yurtlarida talabalar va yosh olimlarning kreativ va startap loyihalarini shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanadigan "Kreativ HUB"lar faoliyatini yo'lga qo'yish;
- yoshlarda kreativlikni rivojlantirishning shakl, metod va vositalarini ta'lim jarayoniga germentevik yondashuv hamda innovatsion metodlarni qo'llash asosida takomillashtirish;
- O'zbekistonda kreativ industriyani rivojlanayotganligini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholashning uslubiyotini ishlab chiqish;
- hududlarda kreativ industriya tarkibiga kiruvchi sohalar vakillari uchun kreativ loyihalarni amalga oshirish maydonlari va klasterlarini tashkil etish;
- foydalanilmayotgan yoki lozim darajada foydalanilmayotgan davlat mulklari tarkibidagi obyektlarni kreativ industriya vakillariga imtiyozli shartlarda ijaraga berish asosida "Zamonaviy kreativ markaz"larni tashkil etish;
- davlat tomonidan kreativ industriyani qo'llab-quvvatlash ularning rivojlanishi, innovatsiyalari va raqobatbardoshligini rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlarini taqdim etish;
- O'zbekiston hududlarining ulkan sayyohlik salohiyati va o'ziga xos ustunlik jihatlari kreativ yondashish asosida hududiy brendlarni shakllantirish asosida turizmni rivojlantirish istiqbolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида"ги 2022 йил 6 июлдаги ПФ-165-сонли Фармони. lex.uz/docs/6102462
2. Флорида Р. Креативный класс. Люди, которые меняют будущее/ Пер. с англ. М.: Классика-XXI, 2005. 430 с.
3. Зеленцова Е.В. Творческие (креативные) индустрии. Справочник. Москва 2022.
4. Журавлев В. А. "Креативное общество, креативная экономика и инновации" Проблемы развития инновационно-креативной экономики / Сборник докладов по итогам международной научно- практической конференции, М.: Креативная экономика, 2010 – 384 с.
5. Белокрылова О.С., Дубская Е.С. TERRA ECONOMICUS, 2013, Том 11 № 4 Часть 2 Мировой опыт формирования креативной экономики и возможности его использования в России. С 5-11.
6. Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США / Пер. с англ. И.И. Дюмулена и др.; Вступ. статья Г.В. Полуниной; Ред. Е.И. Розенталь. М.: Прогресс, 1966. 462 с.
7. Сакайя Т. Стоимость, создаваемая знанием, или история будущего // Новая постиндустриальная волна на Западе: антология / Под ред. В.Л. Иноземцева. М.: Academia, 1999. С. 337-371.
8. Inter-American Development Bank (2017). Public Policies for Creativity and Innovation: Promoting the Orange Economy in Latin America and the Caribbean. Inter-American Development Bank. August 2017.
9. Creative economy outlook 2022 Overview/ UNCTAD/DITC/TSCE/2022/1. © 2022, United Nations.
10. <https://asr.gov.uz/ru/news/11149>.
11. Ўзбекистонда креатив саноат бирлашмаларини ривожлантириш ва такомиллаштириш бўйича тавсиялар. Британия кенгашининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси билан ҳамкорликда тайёрланган. Т.: Май, 2022 й.
12. <https://regulation.gov.uz/oz/d/101722>.
13. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

